

Imomova Marjona

Termiz davlat pedagogika institute talabasi

Annotatsiya: O'zbekiston Respublikasi Yevroosiyoning markazida joylashgan. Hududi shimoli-g'arbda Orol dengizi hamda Ustyurt platosidan, janubda Afg'oniston bilan tabiiy chegara vazifasini bajarayotgan Amudaryogacha, sharqi va janubi-sharqiy tomonlarda Tyanshan hamda Hisor-Oloy tog'larigacha bo'lgan yerkarni egallagan holda, g'arbdan-sharqqa 14235 km ga, shimoldan—janubga esa 930 kmga maydoni cho'zilgan bo'lib, jami davlat chegaralarining umumiy uzunligi 6221 km ga teng. Ushbu maqolada O'zbekiston respublikasi va uning resurs salohiyati haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Resurs salohiyati, chet el investitsiyalari, hamkorlik, "Qizil kitob" suv omborlari.

«O'zbekistonning hududiy makon xususiyatlari, uning jo'g'rofiy o'rni bizning ichki va tashqi siyosatimizni tanlash va amalga oshirishda katta ahamiyatga ega. O'zbekiston bugungi kunda qo'shni davlatlar - Qozog'iston, Qирғизистон, Тоҷикистон, Turkmaniston va Afg'oniston o'rtasida bog'lovchi xalqa vazitasini o'taydi. Bularning barchasi respublikaning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi, chet el investitsiyalarini jalb qilish, O'zbekistonni davlatlar o'rtasida o'zaro foydali hamkorlikning, tovarlar va kapital tranzilining o'ziga xos mintaqaviy markaziga aylantiradi». Ammo shunga qaramasdan, respublikaning dunyo okeaniga to'g'ridan-to'g'ri chiqish imkoniyatining cheklanganligi iqtisodiy geografik o'rnida biroz noqulaylik tug'diradi. Mamlakatimiz dunyo okeaniga chiqishi uchun har tomondan ikkita davlat hududini bosib o'tishi lozim. Dunyoda bunday davlatlar soni hozida 44 ta.

O'zbekistonni 200 ga yaqin davlat mustaqil deb tan oldi. 150 ga yaqin davlatlar bilan rasmiy diplomatik aloqalarini olib bormoqda. Dunyoning eng yirik tashkilotlari, kompaniyalari bilan yaqin hamkorlik aloqalari o'rnatilgan. Bunda, albatta, O'zbekistonning resurs salohiyati va uning boyligi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Binobarin, xalqimizning tarixiy an'analari, urf-odatlari, qadriyatлari, o'tmishi bilan bog'liq tarixiy boyliklar, obidalar jahonning ko'pgina davlatlarida qiziqish uyg'otmoqda. Birgina «Sharq taronalari», «Asrlar sadosi» kabi xalqaro madaniy anjumanlarning respublikamizda o'tkazilishi jahon ham jamiyatida respublikamizning nafaqat tabiiy resurslari, balki madaniyat, san'at sohasida ham tanilishiga sharoit tug'dirmoqda. Mamlakatimiz yer maydoni 448,9 ming km. kv., shuning 3/4 qismini tekisliklar va platolar, qolgan 1/4 qismini tog' oldi hududlari va tog'lar egallaydi. Maydonining kattaligiga ko'ra, Buyuk Britaniya, Shveysariya, Belgiya, Daniya,

VOLUME-1, ISSUE-11

Armaniston, Avstriya davlatlaridan oldinda turadi. O'zbekiston Markaziy Osiyo mamlakatlari ichida iqtisodiy jihatdan rivojlangan davlatlardan biridir. Ayniqsa, sug'orma dehqonchilik va u bilan bog'liq paxtachilik, ipakchilik va qorako'lchilik yuqori darajada taraqqiy etganligi respublikani paxta, pilla yetishtirish hamda qorakol teri tayyorlash bo'yicha jahon mamlakatlari ichida yuqori o'ringa olib chiqdi. Qolaversa, Respublikaning boy tabiiy resurslari, iqtisodiy-ijtimoiy va demografik salohiyati dunyo ham jamiyatida alohida o'rinni egallashga, turli xalqaro va hududiy integratsion tashkilotlar bilan hamkorlik qilishga imkon beradi.

Bundan tashqari, temir yo'l sohasidagi hakmorlik tufayli Ispaniyaning «Talgo» kompaniyasi tezyurar poezdlari respublikamizda harakati yo'lga qo'yildi. Shuningdek, xorijdagi qator kompaniya va firmalar bilan aloqalarning yo'lga qo'yilishi nafaqat, sanoat, transport, balki qishloq xo'jaligida, xususan zamonaviy mehoratsiya texnikasini ishlab chiqarish va ta'mirlashni tashkil etish masalalarida hamkorlik qilish yo'llari ochilmoqda. Birgina Germaniyaning «Klass» kompaniyasi bilan zamonaviy, ish unumi yuqori bo'lgan traktorlar. g'alla o'rish kombayinlari va boshqa qishloq xo'jaligi texnikasini ishlab chiqarishning tashkil etilishi ham bunga misol bo'ladi. Yevropa ittifoqi davlatlari bilan bo'layotgan sherikchilik va hamkorlik aloqalari O'zbekiston ning xavfsizligi va taraqqiyotini ta'minlashga xizmat qilmoqda. Mazkur hamkorlik va sherikchilik iqtisodiy, madaniy, ilmiy, siyosiy sohalarda tobora keng rivojlanmoqda. Bular barchasi, O'zbekistonning xalqaro ham jamiyatida tutgan o'rnnini yanada mustahkamlashda alohida o'rinni tutadi.

Respublikaning tabiiy resurs salohiyatida suv resurslari alohida o'rinni egallaydi. Chunki, mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishida, ayniqsa, qishloq xo'jaligi tarmog'ining taraqqiyotida suv yetakchi omil vazifasini bajaradi. Suv bilan mamlakat hududini ta'minlashda uning eng yirik daryolari Amudaryo (1437 km) va Sirdaryo (2137 km) muhim ahamiyat kasb etadi. Bu daryolardan Amudaryoning suv hajmi katta. Shuningdek, Norin, Zarafshon, Chirchiq, Surxondaryo, Qashqadaryo, Sheroboddaryo, Qoradaryo va So'x kabi jami 50 ga yaqin daryolar ham mavjud bo'lib, ular asosan berk havzada joylashgan, qor va muz suvlaridan to'yinadi. Iqlimning issiqligi va quruqligi ushbu daryo suvlarining ko'plab sug'orishga va bug'lanishga sarflanishiga sabab bo'ladi. Suv resurslari tarkibiga daryolardan tashqari, ko'llar, kanallar, suv omborlaridagi suvlar ham kiradi. Chunonchi, O'zbekistondagi ko'llar turli kattakichiklikda bo'lib, tabiiy ravishda hamda daryo, irrigatsiya tizimlari oqavalaridan hosil bo'lgan. Eng yirik ko'llarga Orol dengizi, Amasoy, Sudoche ko'llari misol bo'ladi. Orol dengizi oxirgi 40 yil mobaynida 15-16 metrga pasayib ketdi, qirg'og'i chekindi, suv sathi qariyb 5 martaga kamaydi.

VOLUME-1, ISSUE-11

O‘zbekiston Respublikasini iqtisodiy taraqqiy etishi, jahonning rivojlangan davlatlari qatoriga kirishida tabiiy geografik sharoitlarining qulayligi, xilma-xil tabiiy hamda inson resurslari bilan yaxshi ta’minlanganligi katta imkoniyatlar yaratadi. Suvyer resurslariga nisbatan O‘zbekiston o‘simgilik va hayvonot dunyosiga o‘ta boy. Ayniqsa, o‘simgiliklarning 25 mingdan ortiq xili mavjud bo‘lib, ularning ko‘pchiligi Qizil kitobga kiritilgan. O‘simgiliklarning aksariyatidan oziqa sifatida foydalansa, ba’zilaridan farmatsevtika sohasida keng ishlatishadi. Hayvonot dunyosida 97 ga yaqin sut yemizuvchilar, qushlarning 410 ga yaqin turi, sudralib yuruvchilarning 57 ta turi, baliqlarning 60 ga yaqin turi, hashoratlarning 15 mingdan ortiq turi uchraydi. Tulkি, chiyabo‘ri, bo‘rsiq. ondatra, nutriya kabi qimmatbaho mo‘yna beradigan hayvonlar, 60 dan ortiq turdagи ovlanadigan qushlar, ayiq, qoplon, bars, qunduz, alqor kabi hayvonlar respublika florasini boyitib kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Алисов Н. В., Хореев Б. С. Экономическая и социальная география мира (общий обзор). - М., 2001.
2. Абиркулов Қ.Н. Иқтисодий география. Дарслик. -Т.: Ёзувчилар ююшмаси нашриёти, 2008.-272 б.
3. Асанов ГА., Набиходон М., Сафаров И. Узбекистоннинг иқтисодий ва ижтимоий жўғрофияси. -Т.: Ўзбекистон, 1994.
4. Вавилова Э.В Экономическая география и регионалистика.-М: Гардарики, 2005.-160с.